

## ALLERGIK REAKSIYA SHAKLLARI

*Sharapova Gulnoza Valentinovna**Navoiy davlat universiteti o'qituvchisi**Bo'riyeva Gulshan**Biologiya ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi*

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqolada allergiya jarayoni haqida qisqacha tushuncha mezonlari hamda odam organizmiga tashqaridan ta'sir qiluvchi allergentlik xususiyatlar keltirib o'tilgan. Har xil begona moddalarga nisbatan paydo bo'ladigan o'ziga xos organizmning reaksiyasi hisoblanadi. Allergik kasaliklar va ularning tasnifi.

**Kalit so'zlar:** allerginlik, sensibilizatsiya, allergiya mezonlari, allergik kasaliklar patogenezi, bronxial astma

**ABSTRACT:** This article provides a brief understanding of the allergy process, the criteria for its occurrence and the characteristics of allergenicity that affect the human body from the outside. It is a specific reaction of the body to various foreign substances. Allergic diseases and their classification.

**KEYWORDS:** allergenicity, sensitization, allergy criteria, pathogenesis of allergic diseases, bronchial asthma

Allergiya (yunoncha.allos-begona o'zga va ergon-ta'sir)-odam organizmiga tashqaridan ta'sir etuvchi allergik xususiyatga ega bo'lgan har xil yot moddalarga nisbatan paydo bo'ladigan o'ziga xos organizmning reaksiyasi tushuniladi. Allergiyaga nisbatan organizmning javob reaksiyasi darhol yoki asta sekin o'ta sezuvchanlik ko'rsatish orqali amalga oshiriladi. Sensibilizatsiya –allergik reaksiya boshlanishidan oldin ma'lum bir davr o'tib, bunda organizmning birinchi tushgan moddaga sezgirligi ortib borishiga aytiladi. Allerginlar-allergik reaksiyalarni keltirib chiqaradigan moddalardir. Ular organizmga uchta asoosiy yo'l bilan tushadi

1.og'iz orqali (ichimlik va ovqatlar orqali)

2.respirator(nafas yo'llari orqali)

3.Kontaktli (allergin bilan kontaktda)

Eng keng tarqalgan allergenlarga quyidagilar kiradi:

\*dori vositalari

\*hayvonlar juni

\*o'simliklar changi

\*hasharotlarning chaqishi

Allergik kasaliklarning bazi belgilari :

\*bosh aylanishi

\*nafas olishning qiyinlashishi

\*teri qichishishi

\*tana haroratining ko'tarilishi

\*og'iz bo'shligidagi ayrim o'zgarishlar

Allergiyani davolash uchun allergiyani aniqlab va reaksiyaga sabab bo'luvchi moddani aniqlash hamda birinchi tez tibbiy yordam ko'rsatib dori vositalarini qabul qilish kerak. Allergiyaning eng xavfli shakli bu –Anafilaktik shok. Bunda nafas olishning qiyinlashishi, to'satdan qichishish.Bosimning keskin pasayishi tufayli shok ya'ni tez yordam ko'rsatilmagunga qadar bo'g'ilishiga olib keladi. Bosh miya va o'pka shishi kuzatiladi.

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

[https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as\\_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG](https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG)

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

Allergik kasalliklardan eng keng tarqalgani bu–bronxial astma hisoblanadi. Astma soʻzi yunoncha boʻgʻilish qisilish hansirash degan maʼnoni anglatadi. Bronxial astma bu-allergik kasallik hisoblanib, bronxlar shilliq qavatining shishi va bronxlarda shilliq toʻplanishi bilan kechadigan kasallik hisoblanadi. Bronxlar oʻtkazuvchanligini buzilishi asosida vaqti-vaqti bilan takrorlanib turuvchi boʻgʻilish xurujlari bilan kechadi.

Chaqaloqlarda, bolalarda va oʻsmirlar oʻrtasida koʻp uchraydigan atopik dematit hisoblanadi. Aniqlanishlarga eʼtibor qaratsak, dunyo boʻyicha har toʻrtta boladan biri atopik dermatitdan aziyat chekadi.

Chaqaloqlarda paydo boladigan teri toshmalarining 85% gacha qismi aynan ushbu kasallik alomati hisoblanadi. Bundan tashqari qizlarda ushbu kasallik oʻgʻil bolalarga qaraganda 1,5 barobar koʻproq qayd etilishi aniqlangan. Ushbu allergik kasallik nasliy xarakterga ega boʻlib ota yoki onada atopiya yaʼni kasallik qayd etiladi. Allergik kasallikning asosiy belgisi-qichishish hisoblanadi. U bolalarning kayfiyatiga va uyqusiga salbiy tasir koʻrsatib, asabiylik hamda jizzakilikni keltirib chiqaradi. Allergik toshmalar sovuq kunlarda koʻpayib issiq mavsum boshlanishi bilan sezilarli darajada kamayishini kuzatishimiz mumkin.

Biz bilamizki, Allergiya-bu immun tizimining odatda zararli boʻlmagan moddalar (allergenlar)ga nisbatan haddan tashqari reaksiya berishi natijasida yuzaga keladigan holat. Allergik reaksiyalar turli shakllarda namoyon boʻlishi mumkin. Quyida asosiy allergiya turlari va ularning reaksiyalari keltirilgan:

**1. Anafilaktik (tezkor) reaksiya-** bu eng xavfli va tez rivojlanadigan allergik reaksiya hisoblanadi. Allergen bilan takroriy aloqa qilgandan soʻng bir necha soniya yoki daqiqada yuzaga keladi. Uning belgilari: Qattiq qichishish, toshmalar, nafas olishning qiyinlashishi, tomoq shishishi, angioedema (Kvinke shishi), qon bosimining keskin pasayishi, xushdan ketish kabilar bilan namoyon boʻladi. Eng keng tarqalgan sabablaridan biri bu asalari chaqishi, yongʻoq, dengiz mahsulotlari, baʼzi dorilar (penitsillin va boshqalar) kabilar misol boʻladi.

**2. Sitotoksik reaksiya-**bu immun tizimi organizmdagi oʻz hujayralarini allergen deb notoʻgʻri tanib, ularga hujum qilishi hisoblanadi.

Masalan: Gemolitik anemiya (qon hujayralarining buzilishi), Baʼzi dorilarga reaksiya (masalan, antibiotiklar), Organ yoki qon koʻchirib oʻtkazgandan keyingi rad etish kabilar.

**3. Immunokompleks (toʻplangan antigen-antikor) reaksiyasi-** bu qonda antigen va antikorlar oʻzaro bogʻlanib, immun kompleks hosil qiladi va toʻqimalarga zarar yetkazadi. Uning belgilaridan biri tana haroratining koʻtarilishi, boʻgʻimlarning ogʻrishi va shishishi, teri toshmali kabilar bilan namoyon boʻladi.

Bularga revmatik isitma va baʼzi autoimmun kasalliklar kiradi.

**4. Kechikkan tipdagi allergik reaksiya (hujayrali immun javob)-**Allergen bilan aloqa qilgandan keyin 24–72 soatdan keyin namoyon boʻladi. Misol sifatida Kontakt dermatit (metall, kosmetika, kimyoviy moddalar taʼsirida terining allergik yalligʻlanishi), surunkali allergik kasalliklar (masalan, tuberkulin testi musbat boʻlgan odamlarda teri reaksiyasi) larni kiritish mumkin.

Xoʻsh, allergik reaksiyalar qanday namoyon boʻladi va allergiyani davolash va oldini olish uchun nimalar qilish mumkin?

Teri allergiyasi: ekzema, toshmalar, qichishish

Nafas yoʻllari allergiyasi: burun oqishi, aksirish, astma

Ovqat allergiyasi: ich ketishi, qorinda ogʻriq, koʻngil aynishi

Koʻz allergiyasi: qizarish, yoshlanish, shishish

Bunga chora koʻrish uchun asosan, birinchi navbatda allergendan qochish – allergiyaga sabab boʻluvchi moddalardan ehtiyot boʻlish, Antigistamin dorilarni qabul qilish bu – allergik

simptomlarni kamaytiradi. Burun sprey va ko‘z tomchilaridan foydalanish – mahalliy allergik reaksiyalarni yengillashtiradi. Immunoterapiya (allergen vaktsinasi)-organizmni allergenlarga asta-sekin moslashtirish usuli va favqulodda choralar – og‘ir allergik reaksiyalar uchun adrenalini (EpiPen) in'ektsiyasi ishlatiladi.

Agar siz yoki yaqinlaringizda allergiya belgilari kuzatilsa, shifokorga murojaat qilish muhim. Ayrim hollarda, ayniqsa anafilaktik reaksiya paytida tezkor tibbiy yordam chaqirish lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O.A. Nazarov, J.A. Nazarov, Q.F.Nizomov "Klinik Allergologiya" Toshkent 2016 y
2. "The Environmental Medicine Guide: Understanding and Preventing Environmental Toxins" – Dr. Philip Incao
3. "The Allergy Self-Help Cookbook" – Marjorie Hurt Jones
4. Н. Ю. Онойко «Аллергия» Москва 2013 й
5. Ольга Жоголева «Аллергия и как с ней жить» Москва 2023 й